

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 22 (1621), 2026-yil 3-fevral, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



AVIATSIYA KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGI TA’MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy xalqaro aeroporti faoliyati samaradorligini oshirish hamda aviatsiya korxonalarini transformatsiya qilish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Navoiy xalqaro aeroportining asosiy ko‘rsatkichlari 2025-yilda 2024-yilga nisbatan o‘sganiga qaramasdan, havo kemalariga xizmat ko‘rsatish, yo‘lovchi va yuk tashish bo‘yicha maksimal quvvatlaridan to‘liq foydalanilmayapti.

Shuningdek, aeroport infratuzilmasi, texnika parki, yuk va yo‘lovchi terminalarini modernizatsiya qilish, faoliyat jarayonlarini raqamlashtirish zarur.

Taqdimotda Navoiy xalqaro aeroportini loyihaviy boshqaruv tamoyillari asosida rivojlantirish taklif etildi.

Aeroportni “Uzbekistan Airports” AJning markazlashgan operativ boshqaruv tizimidan ajratgan holda, unga mahalliy va xorijiy aviakompaniyalar bilan yo‘lovchi va yuk tashish, tranzit hamda texnik qo‘nishlar bo‘yicha mustaqil muzokaralar olib borish hamda shartnomalar tuzish huquqi beriladi.

Aeroport daromadlarini uning infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yoqilg‘i rezervuarlarini kengaytirish, havo kemalarini ta‘mirlash va bo‘yash xizmatlarini joriy etishga yo‘naltirish orqali aviatsiya xizmatlari eksportini oshirish vazifalari belgilandi.

Navoiy xalqaro aeroportini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan biznes reja to‘g‘risida axborot berildi. Unga ko‘ra, tijorat va noaviasion faoliyat ko‘rsatkichlari 50 foizga oshiriladi, 25 tadan ortiq aviakompaniyalarning doimiy parvozlari yo‘lga qo‘yilib, qayta ishlanadigan yuk hajmi 20 ming tonnadan oshiriladi.

Aeroport hududida havo kemalariga texnik va tijorat xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashgan “porto-franko” erkin bo‘xona zonasini tashkil etish taklif qilindi.

2029-yil 1-yanvarga qadar havo kemalariga xizmat ko‘rsatish uchun olib kiriladigan maxsus texnika va ehtiyot qismlar bo‘xona to‘lovlaridan ozod qilinadi. Shuningdek, hududdagi mehmonxona aeroport tasarrufiga o‘tkazilishi belgilandi.

Taqdimotda fuqaro aviatsiyasi korxonalarini transformatsiya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratladi.

Korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida xarajatlarni qisqartirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda asosiy faoliyat turiga xos bo‘lmagan xizmatlarni outsorsingga o‘tkazish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar haqida axborot berildi.

Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish, elektr energiyasida harakatlanuvchi maxsus transport vositalaridan foydalanish orqali ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish zarurligi qayd etildi.

2026-yildan boshlab “Uzbekistan Airways” va “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan nosohaviy faoliyatni moliyalashtirish to‘xtatilishi belgilandi. “Uzbekistan Airports” faoliyati 18 ta, “Uzbekistan Airways” faoliyati esa 16 ta ustuvor vazifa asosida amalga oshiriladi.

Jumladan, korxonalarda xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni mustahkamlash, xizmat va mahsulot tannaxrini hisoblashda maqbul metodologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarini raqamlashtirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Transformatsiya doirasida tashkiliy tuzilmalarni qayta ko‘rib chiqish, shtat birliklarini maqbullashtirish, xalqaro kredit reytinglarini oshirish, IPOga chiqish hamda korporativ xalqaro obligatsiyalarni joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yig‘ilishda aviatsiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish masalalari, jumladan, Fuqaro aviatsiyasi universiteti va uning qoshida aviatsiya texnikumini tashkil etish ishlarining borishi ko‘rib chiqildi.

Ta‘lim muassasalari AQSHning “Embry-Riddle”, Fransiyaning “ENAC” kabi yetakchi xalqaro aviatsiya ta‘lim markazlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Universitetda bort kuzatuvchi, aviatsiya texnikasi bo‘yicha mutaxassislar va mexaniklar kabi amaliy kasblar bilan birgalikda uchuvchilik, muhandislik, havo harakati dispetcherligi, boshqaruv bo‘yicha ham kadrlar tayyorlash va ilmiy dasturlar yo‘lga qo‘yiladi.

Prezidentimiz takliflarni ma‘qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

KO‘MIR VA URAN XOM-ASHYOSINI QAZIB OLISH VA QAYTA ISHLASH HAJMI OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ko‘mir va uran sanoatida amalga oshirilayotgan ishlar hamda yaqin istiqbolga mo‘ljallangan rejalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Ko‘mir ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, sohada raqobat muhitini kuchaytirish va mavjud zaxiralardan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumida 10 million tonna ko‘mir qazib olish rejalashtirilgan bo‘lib, bu o‘tgan mavsumga nisbatan 1,3 million tonnaga ko‘pdir. Hozirgacha 9 million tonna ko‘mir qazib olindi, o‘shish 590 ming tonnani tashkil etdi. Keyingi mavsumda ishlab chiqarish hajmini 11 million tonnaga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Buning uchun Toshkent va janubiy hududlarda joylashgan konlarni o‘zlashtirishni jadallashtirish, selektiv qazib olishni kengaytirish, outsorsing asosida qo‘shimcha ekskavator va texnikalar jalb qilish muhim ekani ta‘kidlandi. Xususi tadbirkorlar ishtirokini kengaytirish orqali 2026-yilda qo‘shimcha 2,5 million tonna ko‘mir qazib chiqarish rejalashtirilgan.

Angrendagi Nishbosh ko‘mir konini o‘zlashtirish loyihasiga alohida e‘tibor qaratladi. Zaxiralarning hajmi 233 million tonna va qiymati qariyb 500 million dollarga baholanayotgan ushbu investitsiya loyihasi doirasida 2026-yilda qazib olish ishlarini boshlash hamda 1 million tonna ko‘mir qazib chiqarish, kelgusida yillik quvvatni 10 million tonnaga yetkazish ko‘zda tutilgan. Loyiha doirasida 880 ta doimiy ish o‘mi yaratiladi.

Taqdimotda ko‘mirni chuqur qayta ishlash asosida yangi turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab

chiqarishga qaratilgan loyiha ham ko‘rib chiqildi. “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan ko‘mirni kimyoviy qayta ishlash orqali polimer mahsulotlar olishni tashkil etish rejalashtirilgan. Loyiha qiymati 5 milliard dollar bo‘lib, uning natijasida yiliga 8-9 million tonna ko‘mirni qayta ishlash va 1,18 million tonna polimer mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi.

O‘tgan yili mamlakatimizda 7 ming tonna uran ishlab chiqarilib, aniqlangan zaxiralar esa 139 ming tonnaga yetdi.

Joriy yilda Armasoy, G‘arbiy Qizilqoq, Janubiy Jongeldi, Sharqiy Ag‘ron konlarini o‘zlashtirishni boshlash rejalashtirilgan.

Xom-ashyo qazib olish hajmining ko‘payishi munosabati bilan uni qayta ishlash quvvatlarini ham oshirish zarurligi qayd etildi.

Uranni qayta ishlash quvvatlarini sulfat kislotasi hamda uni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan texnik oltingugurt bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari belgilab olindi.

Prezidentimiz ko‘mir va uran sanoatida rejalashtirilgan loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

JO‘SHQIN KECHGAN 2025-YILDAGI SUR‘AT 2026-YILDA YANADA YUQORI BOSQICHGA CHIQADI

1

Muddaoga o‘tishdan avval O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasidagi 2025-yilda islohotlar qat‘iy davom ettirilib, iqtisodiyot, ta‘lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya — barcha-barcha sohalarini rivojlantirishda ulkan yutuqlarga erishildi degan ta‘kidni bir yodga olsak.

Yangi O‘zbekiston yetakchisi yurt qayg‘usi, xalq farovonligi yo‘lida bir soniya ham tinim bilmay mehnat qilayotgani va atrofidagi barcha mutasaddilardan ham shuni talab etayotgani guvohi bo‘lib turibmiz. Davlatimiz rahbarining jo‘shqin kechgan 2025-yildagi faoliyat sur‘atini tushirmasdan, aksincha, yanada yuqori bosqichga olib chiqib, 2026-yilda ham davom ettirish maqsadi yanvar oyining dastlabki kunlaridanoq ayon bo‘ldi.

Prezidentimiz xorij davlatlariga safarlar qildi. Hududlarga tashrif buyurib, oddiy odamlarning orzu-istaklari, kelgusi rejalari bilan qiziqdi. Ularni o‘ylantirayotgan ayrim masalalarga yechim bo‘ladigan yangi loyiha va tashabbuslarni ilgari surdi. Dunyoning yetashib davlatlari rahbarlari bilan uchrashuv va qabullar o‘tkazdi. Umuman, bu oyda ham davlatimiz rahbarining ischanlik kayfiyati, tig‘iz



Yanvar sarhisobi

ish kuni, izchil faoliyati xalqimizga ko‘tarinkilik baxsh etdi.

Ana endi muddaoga o‘tamiz. Biz “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”dan nimalar kutamiz, istiqbol rejamizda maqsadlarimiz qay yo‘sin shakllangan, unda bizning ishtirokimiz

qanday? Bu savollarga yangi yilning ilk soniyalarida Prezidentimiz O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan barcha oydinlik kiritilgan: “...2026-yilda ham barcha islohotlarimiz, sa‘y-harakatlarimiz odamlarimiz yaxshi yashashi va biznes uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga qaratiladi.

Tajribali mahalla raislari va faollari, ziyolilar, tadbirkorlarimiz, serg‘ayrat yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz, har bir vatandoshimiz ushbu olijanob ishlarga munosib hissa qo‘shadi deb ishonaman!”.

Davomi 3-betda

YANGILANAYOTGAN “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI: BANK SOHASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Barcha davlatlarda biznesni, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishda hamda aholining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda banklar tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda bank xizmatlari sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilganini alohida ta‘kidlash joiz. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-maydagi farmoni bilan 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlandi.

Mazkur hujjat doirasida qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayoniga raqamli texnologiya vositalari keng joriy etildi, aholining masofadan turib onlayn bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengaydi. Davlat ishtirokidagi banklar soni qisqartirilib, ushbu jarayonga xususiy sektor — mahalliy va xorijiy investorlar vakillari keng jalb qilindi. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lami kengaydi, hududlarda ko‘rsatiladigan bank



xizmatlarida tezkorlik va manzillilikni ta‘minlash maqsadida mahallalarda “mahalla banki” faoliyati yo‘lga qo‘yildi va xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro hamkorlik kuchaydi.

Davomi 2-betda

Mulohaza



JAMIYAT IJODKORLIK BILAN YASHAYDI, IQTISODIYOT FAOLLIK BILAN RIVOJLANADI

Insoniyat uzoq yillardan beri ulkan sinovlarni, buyuk izlanishlarni va ma‘naviy yuksalishlarni boshdan kechirib keladi. Ammo taraqqiyot yo‘lida bir to‘siq borki, u tashqi kuchlardan ham xavfli, ziddiyat yoki iqtisodiy inqirozlardan ham qattiqroq asorat qoldiradi. Bu — byurokratiya! Qog‘ozbozlik, sun‘iy to‘siqlar, uzoq navbatlar, keraksiz talablar va inson irodasini sinab turadigan muammolar — bular faqat ma‘muriy muammo emas, balki jamiyat rivojini sekinlashtiruvchi, xalq ishonchini tushiruvchi xavf-xatardir.

Jamiyat ijodkorlik bilan yashaydi, iqtisodiyot faollik bilan rivojlanadi, davlat esa xalq bilan mulotoqda takomillashadi. Agar bu jarayon haddan tashqari qog‘ozlar, ruxsatnomalar, tasdiqlovchi ma‘lumotlar

girdobida qolsa, taraqqiyot o‘zanini yo‘qotadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholi va biznes uchun ortiqcha byurokratiyani qisqartirish, davlat bilan fuqaro o‘rtasidagi

masofani kamaytirish, hech bir murojaatning e‘tiborsiz qolmasligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar qilindi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan oltinchi ustuvor yo‘nalish — zamonaviy davlat boshqaruvi va adolati sud-huquq tizimini shakllantirish mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo‘nalish doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, inson omilini keskin qisqartirish, korruptsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli, aholi manfaatiga xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini barpo etish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Davomi 4-betda

9-fevral - Alisher Navoiy tavallud topgan kun

“ILM BIRLA BO‘LMA SA ADAB, UL ILM JAHO LATDIN YOMON”

Bugungi ilg‘or taraqqiyot davrida milliy tafakkurimizning tayanchi bo‘lgan buyuk ajdodlar merosiga murojaat etish ham tabiiy, ham zaruriy ehtiyoj. Ana shunday bebaho meros sohiblaridan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Uning asarlarida farzand tarbiyasi masalasi alohida bob sifatida ajratib ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, deyarli barcha axloqiy, falsafiy va ijtimoiy qarashlari aynan tarbiya mavzusiga borib taqaladi. Shoir nazdida tarbiyali avlod — adolati jamiyat va barqaror davlatning asosiy kafolati. Komil insonni voyaga yetkazish — jamiyatni isloh qilishning eng ishonchli va uzoq muddatli yo‘li. Shu ma‘noda, Navoiyning qarashlari yangi O‘zbekistonning inson qadriga asoslangan taraqqiyot g‘oyalari bilan hamohang.

Davomi 6-betda





O‘ZBEKISTON – TURKIYA: KENG QAMROVLI HAMKORLIKNI CHUQURLASHTIRISH – STRATEGIK MAQSAD

O‘zbekiston Prezidentining Turkiyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlash, mavjud hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarni muvofiqlashtirish nuqtayi nazaridan muhim siyosiy voqea sifatida baholandi.

Oqsaroy qarorgohida o‘tkazilgan muzokaralar, shuningdek, Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining ikki mamlakat yetakchilari raisligida bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi yig‘ilishi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi aloqalarning izchil rivojlanib borayotganini yana bir bor tasdiqladi. Mazkur uchrashuv Abadiy do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomaning 30-yilligiga to‘g‘ri kelgani bilan alohida ramziy ahamiyat kasb etdi hamda tomonlarning o‘zaro ishonch, siyosiy yaqinlik va umumiy manfaatlariga asoslangan sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga bo‘lgan qat‘iy intilishini namoyon etdi.

Tashrif doirasida tomonlar siyosiy muloqotni muntazam davom ettirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashdi. Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha qarashlar uyg‘unligi qayd etilar ekan, ikki davlat o‘rtasidagi strategik hamkorlik nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki butun turkiy dunyo va keng mintaqada barqarorlik hamda taraqqiyotni ta‘minlashga xizmat qilishi ta‘kidlandi.

Tashrifning asosiy maqsadlari, imzolangan kelishuvlar va har ikki davlat uchun uzoq muddatli istiqbollar tahliliga alohida to‘xtalish lozim. Strategik maqsad, shubhasiz, keng qamrovli hamkorlikni chuqurlashtirish. Bu borada tomonlar muzokaralar davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy-gumanitar sohalarini qamrab oluvchi keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish kursini tasdiqladi.

Davlat rahbarlari uchrashuvning muqaddas Ramazon oyi arafasida o‘tayotgani ramziy ma‘noga ega ekanini ta‘kidlab, xalqaro masalalar, jumladan, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik bo‘yicha pozitsiyalar yaqinligini qayd etdi. Xavfsizlik, mudofaa



va kiberjinoychilikka qarshi kurashish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Muzokaralar yakunida hamkorlikni kengaytirish uchun huquqiy asos yaratuvchi salmoqli ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolandi. Ulardan asosiylari davlat rahbarlarining qo‘shma bayonoti va hamkorlik mexanizmlari to‘g‘risidagi qaror bo‘ldi.

Hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar orasida quyidagi sohalaridagi bitimlarni alohida ta‘kidlash joiz:

— iqtisodiyot va sanoat: Tog‘-kon sanoatida hamkorlik, xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati to‘g‘risidagi bitimlar;

— xavfsizlik va texnologiyalar: Yadroviy xavfsizlik, radiatsiyaviy himoya sohasidagi hamkorlik, shuningdek, harbiy tibbiyot sohasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlar;

— ijtimoiy soha: Migratsiyani soddalashtirish, fuqarolarni repatriatsiya qilish, shuningdek, sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasidagi hamkorlik bo‘yicha kelishuvlar;

— gumanitar blok: 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan madaniy hamkorlik rejası va Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlik dasturi.

Iqtisodiy tarkibiy qism tashrifning markaziy mavzularidan biri bo‘ldi. Ayni paytda o‘zaro savdo hajmi 3 milliard dollardan oshdi, qo‘shma korxonalar soni esa 2200 taga yetdi.

Uchrashuvda kelajak uchun aniq natijalar va maqsadlar belgilab olindi.

Birinchisi, savdo aylanmasining o‘shishi. Yaqin yillarda savdo hajmini 5 milliard dollarga yetkazish, jumladan, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovarlar ro‘yxatini kengaytirish hisobiga ulkan maqsad qo‘yildi.

Ikkinchisi, investitsiyaviy loyihalar. Turk kompaniyalari ishtirokida 9 milliard dollarlik yangi loyihalar portfeli shakllantirildi. O‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 10 milliard dollarni tashkil etadi.

Uchinchisi, sanoat kooperatsiyasi. Alohida dastur doirasida amalga oshiriladigan

yangi ustuvor yo‘nalishlar tasdiqlandi.

Tashrif madaniy yaqinlikning yuqori darajasini ham namoyish etdi. Davlat rahbarlari Hatay viloyatida O‘zbekiston tomonidan qurilgan “O‘zbekiston” turar joy majmuasining ochilish marosimida ishtirok etdi va Istanbulda o‘zbek maktabi qurilishiga start berdi.

Inson kapitalini kelgusida rivojlantirish maqsadida shu yil bahorda Buxoroda to‘rtinchi rektorlar forumini o‘tkazish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bundan tashqari, yil oxiriga qadar sherik viloyatlar bilan qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish uchun O‘zbekistonning barcha hududlari delegatsiyalarining Turkiyaga tashrifi kutilmoqda.

Tashrif yakunlari Toshkent va Anqara o‘rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarilganini yaqqol tasdiqladi. Muzokaralar davomida erishilgan kelishuv va bitimlarni amalga oshirish maqsadida ikki mamlakat hukumatlariga aniq muddat va mas‘ul ijrochilarni qamrab olgan kompleks “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish hamda tasdiqlash vazifasi yuklatildi. Ushbu hujjat siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar yo‘nalishlardagi hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy darajadagi muloqotning mantiqiy davomi sifatida Turkiya Prezidenti davlatimiz rahbarining taklifiga binoan O‘zbekistonga javob tashrifini amalga oshirishi davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari barqaror davom etishidan dalolat beradi.

Sayidmurod SATTOROV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi “Davlat siyosati va boshqaruvi” maktabi dekani, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

YANGILANAYOTGAN “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI: BANK SOHASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Boshlanishi 1-betda

Bank-moliya sohasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida 2022-yilda “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi va 2025-yilda “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. O‘tgan yili “Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi. Amalga oshirilgan islohotlar, o‘z navbatida, aholi va tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy bank xizmatlariga ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlar yangilanayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham mantiqiy davom ettirilib, bank xizmatlari ko‘rsatish sohasini yangi bosqichga olib chiqish nazarda tutilgan.

Xususan, Prezidentimizning “Mamlakatning 2030-yilgacha mo‘ljallangan taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha

tijorat tashkiloti hisoblangan banklar faoliyatining asl mohiyatiga ham mos bo‘lib, ularning tadbirkorlik subyekti sifatida mustaqil faoliyat ko‘rsatishiga imkoniyat beradi.

Yangilanayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida nazarda tutilgan muhim tashabbuslardan yana biri bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini hozirgi 440 trillion so‘mdan 2030-yilga kelib, 720 trillion so‘mga yetkazishdir.

Tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhiti rivoji hamda aholining zamonaviy innovatsion mahsulotlarga ehtiyoji ortishi moliyaviy resurslarga talabni ham kuchaytirmoqda. O‘z navbatida, moliyaviy resurslarga ushbu ehtiyojlarni qondirishda strategiya doirasida belgilangan banklarning yillik kreditlash hajmini oshirish muhim huquqiy-iqtisodiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda respublikada jami 280 trillion so‘mdan ko‘proq kredit ajratilgan va ularning asosiy qismi, taxminan 70 foizdan ziyodi yuridik shaxslarga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosan, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotni raqamlashtirishga qaratilgan.

Yangilanayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nazarda tutilgan muhim tashabbuslardan yana biri bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini hozirgi 440 trillion so‘mdan 2030-yilga kelib, 720 trillion so‘mga yetkazishdir.

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu muhim hujjat bilan tasdiqlanadigan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 50-bandida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalar doirasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra, 2030-yilgacha davlat ixtiyorida faqat 4 ta bankni saqlab qolish va qolgan banklarni xususiy sektorga berish rejalashtirilgan.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda davlat banklarini xususiy sektorga berish amaliyoti boshlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat ishtirokidagi 9 ta bank faoliyat ko‘rsatmoqda. 2030-yilgacha har yili davlat ishtirokidagi 1 tadan bankni xususiy lashtirish va davlatning ijtimoiy funksiyasi hamda vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan 4 ta bankdagina davlat ishtirokini saqlab qolish nazarda tutilgan.

Banklarda davlat ishtirokini qisqartirish va ularni xususiy sektorga berish, o‘z navbatida,

Shuningdek, Markaziy bank ma‘lumotiga ko‘ra, 2025-yilda ajratilgan jami kreditlar ulushida davlat banklarining hisssasi 70 foizga yaqinni, xususiy banklar ulushi esa 30 foizdan ko‘proqni tashkil etgan.

Banklarni xususiylashtirish va banklar tomonidan ajratiladigan yillik kreditlash miqdorini oshirish, o‘z navbatida, davlatning aholi va tadbirkorlik subyektlarini zarur mablag‘lar bilan ta‘minlash borasidagi muhim vazifasini amalga oshirishga, bu borada bank xizmatlari imkoniyatlaridan keng foydalanishga zamin yaratadi. Shuningdek, bozor munosabatlarining davlat ishtirokisiz mustaqil rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy standartlarga ham mos keladi.

Yangilanayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bank sohasini rivojlantirish borasida nazarda tutilgan muhim o‘zgarishlardan yana biri tijorat banklari depozitlari qoldig‘ini yil sayin o‘rtirib borishdir. Boshqacha aytsek, bugungi kundagi 400 trillion so‘mni 2030-yilga kelib, 560 trillion so‘mga yetkazish vazifasi belgilangan.



Tijorat banklari depozitlari qoldig‘i deganda muayyan sana holatiga ko‘ra, amaldagi qonunchilikka muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tijorat banklariga joylashtirilgan depozit hisobvaraqlarda saqlanayotgan, talab qilib olinadigan muddatli va jamg‘arma depozitlar bo‘yicha mablag‘lar hajmini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkich tushuniladi.

Ushbu iqtisodiy ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, banklarning likvidligi va resurs imkoniyatlari shunchalik mustahkamlanadi, kredit portfelinı shakllantirish imkoniyati kengayadi hamda aholi va investorlarning bank tizimiga ishonchi ortadi. Strategiya doirasida belgilangan tijorat banklari depozitlari qoldig‘ini yil sayin o‘rtirib borish maqsadi aynan ushbu muhim iqtisodiy vazifani ta‘minlashga qaratilgandir.

2025-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun aholi va tadbirkorlik subyektlarining banklarda joylashtirgan omonatlarini himoya qilish hamda ularni kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan yangi va muhim huquqiy normalarni belgilab berdi. Mazkur hujjat, o‘z navbatida, bank tizimiga ishonchni oshirishda hamda strategiya doirasida bank sohasini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rmda aytish mumkinki, yangilanayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bank sohasini isloh qilish bo‘yicha muhim tashabbuslarni nazarda tutgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga, zamonaviy bank xizmatlariga bo‘lgan zaruriy ehtiyojini qondirishda hamda banklar faoliyatida barqarorlikni ta‘minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qahhor JUMAYEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yetakchi ilmiy xodimi

XOTIRJAMLIK, TINCH-TOTUV HAYOT VA DAVLAT HIMOYASIGA ISHONCH

So‘nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi. Mahallaning o‘rni mustahkamlandi, profilaktikaning yangi formatlari joriy etildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar qilindi. Bu jarayon, ayniqsa, Toshkent shahrida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shaharda kuzatuv, tahlil va tekzorlik bilan ishlaydigan markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, qonunbuzarliklarga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni bartaraf etish va huquqbuzarliklarning oldini barvaqt olish orqali aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirishga qaratilgan mutlaqo yangi va samarali mexanizmlar joriy etildi.



Nuqtayi nazar

Bu jarayonda huquqiy baza ham takomillashtirildi. Texnologik yangilanishlar soha rivojida alohida o‘rin egalladi. Videokuzatuv tizimlari, raqamli platformalar, tahliliy markazlar — bularning barchasi kunu tun aholi farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash yo‘lida samarali ishlaymoqda. Natijada maishiy nizolar kamayib, xavf-xatarlarni tezkor aniqlash, shahar muhitidagi barqarorlikni ta‘minlashda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Bugun iqtisodiyot rivojlanib, O‘zbekiston uchun dunyo eshiklari ochilayotgan hamda investitsiya hajmi oshib borayotgan bir sharoitda xavfsiz shahar muhitini yaratish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Aynan shuning uchun ham davlatimiz rahbari mas‘ullar oldiga “Xavfsiz shahar” muhitini yaratish vazifasini biz qo‘ymoqda.

Prezidentimiz 27-yanvar kuni Toshkent shahri ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi qo‘riqlash xizmati faoliyati va amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish asnosida yangi vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, poytaxtda xavfsiz muhiti shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta‘minlash bo‘yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yurtimizda aholining tinch va osoyishta hayoti hamda mol-mulki daxlsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilib, ilg‘or xorijiy tajriba asosida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamentiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri ham aynan shu.

Davlatimiz rahbarining 2025-yildagi tegishli farmoni va qarori ijrosi doirasida Qo‘riqlash departamenti Milliy gvardiyadan ichki ishlar organlari tizimiga o‘tkazildi. Ushbu farmon va qarorda belgilab berilgan vazifalarni ijro etish maqsadida aniq rejalar ishlab chiqilib, tegishli choralar ko‘rildi.

— So‘nggi 9 yilda qo‘riqlash xizmati tubdan yaxshilandi, moddiy-texnik bazasi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlandi. E‘tiborli jihat, shaxsiy tarkibning ijtimoiy muhofazasi kuchaytirildi. Prezidentimiz 2017-yili Toshkent shahri qo‘riqlash xizmati binosiga tashrif buyurguncha biz 1970-yilda ishlab chiqarilgan qo‘riqlash qurilmalaridan foydalanib kelayotgan edik. Bu qurilmaga faqat telefon tarmog‘i mavjud obyekt va xonadonlarni ulash imkoniyati bor edi, xolos. “Tashvish” xabari kelib tushganda, xodimlar ma‘lumotlarni jurnallarga qayd etib borardi. Bu esa qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Hozirgi tizimda esa barchasi onlayn qayd etiladi. Hammasi raqamlashtirilgan, vaqti, manzili va boshqa ma‘lumotlar ko‘rinib



turadi. Ayni paytda yangi integrallashgan, zamonaviy qo‘riqlash tizimi amaliyotga joriy etildi. Avvalgisiga qaraganda bu tizimning ustun jihatlari ko‘p, ma‘lumotlar to‘liq raqamlashtirilgan. Shu bilan birga, foydalanuvchilar soni cheklanmagan va oddiy sim-karta orqali ishlab imkoniyati mavjud. “Xavfsiz shahar” konsepsiyasi doirasida yagona platforma, ma‘lumot qayta ishlanaigan 13 ta markaz, yagona elektron xarita, 42 ming 750 ta intellektual kamera hamda 17 ta yong‘in xavfsizligi monitoringi tizimi faoliyat yuritmoqda, — deydi IIV Qo‘riqlash departamenti yetakchi mutaxassisi Bekzod Mahmudjonov. — Huquqni muhofaza qiluvchi va davlat organlarining “Xavfsiz shahar” yagona platformasi texnik imkoniyatlaridan uyg‘un foydalanishi natijasida byudjetning bir necha yuz milliard so‘m mablag‘i tejalmogda. Qolaversa, ushbu konsepsiyani joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi xalqaro darajada ham katta qiziqish

uyg‘otmoqda. Avvallari faqat xonadon yoki obyektning qo‘riqlash bilan shug‘ullangan bo‘lsak, endi “aqli” uy tizimi orqali maishiy texnikalarni ham nazorat qilishimiz mumkin. Masalan, xonadonda is gazi chiqsa, qurilma darhol aniqlab, xabar beradi. Bundan tashqari, yong‘in sodir bo‘lganda ham tezkor xabardor bo‘lish imkoniyati mavjud.

Yil yakuniga qadar tarmoq qamrovini yanada kengaytirish, sun‘iy intellekt asosida kamida to‘rtta yangi tizimni platformaga ulash hamda raqamlashtirish darajasini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish rejalashtirilgan.

Bugun jamoat xavfsizligini ta‘minlash va “Xavfsiz shahar” muhitini yaratish yo‘lidagi bunday sa‘y-harakatlar, shubhasiz, mamlakat xavfsizligi hamda yurtodshlarmiz farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

JAMIYAT IJODKORLIK BILAN YASHAYDI, IQTISODIYOT FAOLLIK BILAN RIVOJLANADI

Boshlanishi 1-betda

Bir paytlar oylab choʻzilgan ishlar bugun bir kunda, hatto bir necha soatda hal qilinmoqda. Oʻrtiqcha qogʻoz aylanishi qisqarar ekan, ishtirokchi idoralar soni ham minimumga tushirilib, toʻgʻridan toʻgʻri muloqot madaniyati shakllanmoqda. Davlat xizmatlari milliy tizimini tubdan isloh qilish, raqamlashtirishni keng joriy etish, maʼmuriy jarayonlarni soddalashtirish — bularning barchasi xalq manfaatiga qaratilgan ustuvor vazifalarga aylandi.

Bu jarayon bir haqiqatni oydinlashtiradi: yurtimizda byurokratiyaga qarshi kurash bir kunlik tashabbus emas, balki strategik yoʻnalish, fuqaro qadrini yuksaltirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir.

Davlat boshqaruvida shaffoflik va xalqchillikni taʼminlash yoʻlidagi bu saʼy-harakatlar soʻnggi yillarda oʻzining aniq va ishonchli natijalarini koʻrsatmoqda. Respublikamizda byurokratiyani qisqartirishga doir farmon va qarorlarning qabul qilinishi shu maqsad yoʻlidagi siyosiy irodlarning yana bir isbotidir. Bu hujjatlar har biri fuqaro hayotini yengillatish, davlat mexanizmlarini tezkor va zamonaviylashtirish, idoralarning masʼuliyatini oshirishga qaratilgan amaliy qadamlardir.

Davlat xizmatlari markazlari, Yagona interaktiv portal, “Raqamli hukumat” tizimlarining tashkil etilishi esa mamlakatimizda mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Odamlar yillab koʻnikkan qogʻozbozlik, qator idoralarni aylanib yurish, hujjat topshirish uchun kunlab navbatda turish kabi holatlar ortda qolmoqda. Xizmatlar fuqaro uchun qanchalik qulay, tezkor va shaffof boʻlsa, davlatga ishonch ham shunchalik mustahkamlanib boradi.

2017-yilda faqat 444 turdagi davlat xizmati koʻrsatilgan boʻlsa, bugun ularning soni 1000 dan oshganini mamlakatdagi islohotlar koʻlamining yorqin dalilidir. Koʻrsatilgan xizmatlar sonining qariyb 10 barobar oʻsib, 55 milliondan oshgani esa fuqarolarning davlat bilan munosabatlari qanday tez va samarali shaklga oʻtganini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, 90 dan ortiq xizmatlarning proaktiv va kompozit shaklda yoʻlga qoʻyilgani aholi hayotini sezilarli darajada yengillashtirdi. Masalan, tugʻilish bilan bogʻliq xizmatlarning kompozit shaklda koʻrsatilishi har yili qariyb bir million fuqaroga oʻrtiqcha ovoragarchiliksiz katta qulaylik yaratayotgani insoniylik tamoyilining amaliyotdagi yorqin namunasidir.

Ehtiyojmand qatamlar uchun ham davlat himoyasining yangi modeli shakllanmoqda — ijtimoiy nafaqalar, shuningdek, yoshga doir pensiya tayinlash kabi xizmatlar fuqaro murojaatisiz avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda. Bu davlatning fuqaroga qoʻl uzatishini kutishga zarurat qolmagani, balki davlatning oʻzi inson hayotidagi muhim bosqichlarni his etib, zarur yordamni oʻz vaqtida koʻrsatadigan tizim shakllanayotganini anglatadi.

Shu tariqa byurokratiyani qisqartirish borasidagi islohotlar endi faqat idoralar ichidagi tartibga solish emas, balki jamiyat ongini, davlat va fuqaro munosabatlarining mohiyatini tubdan oʻzgartirib borayotgan milliy jarayonga aylandi.

Raqamlashtirish shunchaki texnologik jarayon emas, balki jamiyatning oʻzini anglash darajasi, davlat bilan inson oʻrtasidagi masofaning qisqarishi, vaqt qadrining qayta kashf etilishidir. Bugun 30 turdagi xizmatning real vaqt rejimida koʻrsatilayotgani — ilm va taraqqiyot orqali inson mehnatiga hurmatning amaliy ifodasidir. Bir qarashda oddiy raqamdek tuyuladi, ammo uning zahirida bir necha million insonning asrab qolingani va qutqarilgan vaqti, oʻrtiqcha ariza va navbatlardan xalos etilgan yuz minglab taqdirlar mujassam.

demakdir. Chunki davlatning har bir islohoti oxir-oqibat inson hayotini yengillatishi, kun tartibini qulaylashtirishi kerak.

Tadbirkorlik sohasidagi oʻzgarishlar ham hayotning oʻzi kabi teran maʼno kasb etmoqda. 160 dan ziyod litsenziya va borish niyatining ifodasi. Fuqaro qayerda yashashidan qatʼi nazar, huquqi, qadri bir xil boʻlishi kerak.

Ana shunday ulkan oʻzgarishlar orasida “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili yurtidagi muhim gʻoyalardan biri sifatida hayotga tatbiq etildi. Bir umr orzu qilgan ishni boshlash uchun odamga bir yil emas, bir oy emas, 15 daqiqa yetgani jamiyat taraqqiyotga qanday intilayotganining eng yorqin ramzidir. Chunki vaqt qadrini bilgan millatgina kelajakni qoʻlga kiritadi.

Davlatimiz rahbari oʻtgan yili poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida byurokratiyani bartaraf etish masalalariga bagʻishlangan xalqaro forumda byurokratiyani kamaytirish boʻyicha alohida davlat tasdiqlanganini taʼkidlagan edi. Bu hujjat — qogʻoz va shtamplar yuki ostida ortilgan jamiyatni erkin nafas oldiradigan, davlat bilan inson oʻrtasidagi masofani yana ham qisqartiruvchi ulkan qadamd.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan maqsad ham oʻljanob: 2030-yilga qadar Oʻzbekistonni oʻrtiqcha byurokratiyadan xoli hududga aylantirish. Bu davlat xizmatining mohiyatini tubdan oʻzgartirish, fuqaro uchun qulay ekotizim barpo etish, boshqaruv falsafasini “insonga xizmat” tamoyili asosida qayta qurish demakdir.

Dasturda belgilangan vazifalar esa yuqori surʼatda amalga oshiriladi. Davlat xizmatlari sonining 1500 taga yetkazilishi, elektron xizmatlar ulushining 95 foizga chiqarilishi mamlakatda qogʻozbozlikdan emas, raqamli ishonchdan iborat boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan ishlar koʻlamidan dalolat beradi. Bu yil 250 ta xizmat elektron shaklga oʻtkazilishi, avtotransport roʻyxatidan tortib, QQS qaytarishgacha boʻlgan jarayonlarning raqamlashtirilishi

Yurtimiz boʻylab aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish jarayonlari faol davom etayotgan shu kunlarda yana bir yirik loyiha — “Tashabbusli budjet”ning 2026-yilgi 1-mavsumiga start berildi. Yilda ikki marotaba oʻtkazilishi anʼanaga aylangan mazkur loyiha bu yilgi ilk mavsumi 1-fevral kuni “Tashabbuskor xalq uchun — yangi imkoniyatlar mavsumi” shiori ostida boshlandi. Ushbu mavsum loyiha joriy etilganidan buyon oʻtkazilayotgan oʻninchi — yubiley mavsum ekani bilan ham alohida ahamiyatga ega.



TASHABBUSLI BUDJET

Joriy yilning birinchi mavsumi boshlandi



OpenBudget

Oʻzbekiston Respublikasi

“Ochiq Budjet” Portali



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Oʻtgan davr mobaynida “Tashabbusli budjet” haqiqatan odamlarni bir maqsad yoʻlida birlashtirayotgan, oʻz hududidagi muammolarni birgalikda yechishga undayotgan umummilliy harakatga aylandi, xalqimiz orasida yaxshigina ommalashdi. Hozir loyihaaning mohiyati, maqsad-muddaosi haqida tushuntirishga ham zarurat yoʻq, boisi, odamlarning oʻzi bu haqida yaxshi biladi. Loyiha start olishi bilan koʻpchilik allaqachon oʻzlari ilgari surayotgan ijtimoiy muammo boʻyicha “Ochiq budjet” portali orqali takliflarini qoldirishni boshlab yubordi. Keyingi bosqichda ovoz toʻplash jayonlarida faollik koʻrsatishga kirishiladi. Loyihada kerakli ovozlar toʻplanib, gʻolib deb topilgan tashabbuslar davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Bu ham odamlarning oʻzi yashab turgan hududdagi ijtimoiy muammolarga befarq emasligi, ularni yechishga birgalikda intilayotganining amaliy ifodasi.

Oʻtgan mavsumlarda gʻolib boʻla olmagani uchun esa bu mavsum navbatdagi imkoniyatdir. Qolaversa, taklif etiladigan loyihalar qatoriga yana yuzlab yangilari qoʻshiladi. Jarayonlar esa bir necha bosqichda davom etadi. Dastlab 1-20-fevral kunlari loyiha kiritish bosqichi boʻlib oʻtadi va 21-fevral — 7-martda saralash bosqichi davom etadi. Soʻng 8-10-martda targʻibot bosqichi, 11-20-mart sanalarida ovoz berish bosqichi oʻtkaziladi. Birinchi mavsum gʻoliblari shu yili 21-mart — Navroʻz umumxalq bayramida eʼlon qilinadi. 21-31-mart kunlari esa qoʻshimcha gʻoliblarni eʼlon qilish bosqichi boʻlib oʻtadi.

Yetakchi hududlar qaysilar?

“Tashabbusli budjet” oʻz nomi bilan aholi tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus sifatida loyihalarning hayotga tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda. Fuqarolar tomonidan muayyan taklif ilgari surilar ekan, u jamoatchilikka ochiq taqdim etiladi. Loyihaga omma tomonidan ovoz beriladi. Har bir hududda eng koʻp ovoz toʻplagan takliflar gʻolib topiladi va loyihalar berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib saralanadi, qisqa fursatlarda moliyalashtiriladi. Shu kungacha xayrli loyiha ortidan hududlardagi minglab ijtimoiy masalalar oʻz yechimini topib, qanchadan qancha yoʻllar asfaltlandi, ijtimoiy soha obyektlari qayta taʼmirlandi, joylarga ichimlik suv, elektr toki yetib bordi. Ayni paytda bu boradagi ishlar hududlar boʻylab faol davom etmoqda.

Oʻtgan yili loyihada gʻolib boʻlgan Mirishkor tumani sport maktabida yangi sport inshootlari foydalanishga topshirildi. Umumiy qiymati 1,5 milliard soʻm boʻlgan loyiha doirasida sport maktabi atrofi zamonaviy devor bilan oʻralib, sunʼiy qoplamali koʻp funktsiyali sport oʻyingohi barpo etildi. Endi bu yerda yoshlarning vaqti yanada mazmunli oʻtmoqda. Maktabda kattagina tennis korti bor va undan maktab oʻquvchilaridan tashqari boshqa sportchilar ham foydalanadi. Ularining ayishicha, binoga keluvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida mashinalar turar joyi qurilib, foydalanishga topshirilgani ayni muddao boʻldi.

Qorovulbozor tumani markazidan 15 kilometr uzoqlikdagi Yangiboy otlayvi shifokorlik punkti ham tez orada toʻliq foydalanishga topshiriladi. Ayni kunlarda bu yerda kapital taʼmirlash ishlari jadal davom etmoqda. Loyiha “Tashabbusli budjet”ning oʻtgan yilgi gʻoliblaridan. Ajratilgan 830 million soʻmdan ortiq mablagʻ evaziga shifokorlik punkti binosining tashqi fasadi va isitish tizimi yangilanib, ichki va tashqi pardozlash ishlari bajarilmoqda.

Uzun tumanida koʻzi ojizlar uchun zamonaviy kutubxona, Arnasoy tumani markazida yangi piyodalar yoʻlaklari barpo etilyapti. Kogon shahridagi “Buxoroi Sharif” MFYda joylashgan 3-umumtaʼlim maktabi zamonaviy koʻrinishda taʼmirlanish jarayonida.

Umuman, bugun biror hudud loyihadan chetda qolmayapti, aksincha, yildan yilga ularning faolligi oshib bormoqda. Hatto taklif kiritayotgan hududlar orasida har gal yetakchilar qatoridan oʻrin egallaydiganlari ham bor. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bu boradagi tahlillarni umumlashtirib, “Tashabbusli budjet” jarayonlarida hududlar faolligini baholadi. Shu asosda 2025-yil yakunlari boʻyicha fuqarolarning budjet jarayoniga jalb etilishi hamda tashabbusli budjetlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi samaradorligi va natijadorligi yuzasidan hududlar reytingi eʼlon qilindi. Unga koʻra, “Tashabbusli budjet”ning 2025-yil 2 mavsumida mahallalar ishtiroki boʻyicha eng yuqori koʻrsatkichlar Samarqand, Fargʻona va Toshkent viloyatlarida kuzatilgan boʻlsa, loyihaga aholining jalb etilishi boʻyicha Qashqadaryo, Surxondaryo, Fargʻona viloyatlari kuchli uchlikni egallagan.

Loyihada qaysi mahallalar ishtirok eta olmaydi?

Odamlarning loyihaga qiziqishi ortgani sari uni xalqqa yanada yaqinlashtirish, imkoniyatlarni oshirish choralari koʻrilyapti. Shu maqsadida “Tashabbusli budjet” jarayonlari doimiy takomillashtirilib, koʻzga tashlangan kamchiliklar keyingi mavsumlarda bartaraf etib borilmoqda.

Bu gal ham yangiliklar yoʻq emas va loyihaning navbatdagi mavsumi yanada qizgʻin oʻtishi kutilyapti. Prezidentimizning tegishli qarori bish loyiha jarayonlariga qator oʻzgarishlar kiritilgan. Bu boʻyicha hududlarda keng tushuntirish ishlari ham olib borildi. Asosiy yangiliklar oʻzgarigan tartib va yangi mexanizmlar haqida tushuntirishlar berildi.

— “Tashabbusli budjet”ga kiritilgan qator oʻzgarishlar joriy mavsumdan boshlab amal qiladi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boʻlim boshligʻi Azimjon Hasanov. — Eng muhim yangiliklardan biri esa tashabbusli loyihalarni aholi va davlat oʻrtasida sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi yoʻlga qoʻyilgani boʻldi. Bunda aholi tomonidan loyiha qiymatining 50 foiz qismi moliyalashtirilgan taqdirda loyihalar avtomatik ravishda gʻolib topiladi va qolgan qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Loyihalarni bu tarzda kiritish mutlaqo ixtiyoriy. Tartibga koʻra, har bir mahallaga bir mavsumda faqat bitta loyihani sheriklik asosida amalga oshirishga ruxsat beriladi. Loyiha qiymatining 50 foiziga teng mablagʻni toʻplay olmagani sheriklik loyihalar chetlashtirilmaydi, ularga qayta imkoniyat

sifatida anʼanaviy ovoz berish bosqichiga oʻtkaziladi. Ammo sheriklik loyihalari faqat jamoaviy foydalanishga moʻljallangan infratuzilma obyektlariga taalluqli boʻlishi kerak, budjet tashkilotlariga oid loyihalarni sheriklik asosida moliyalashtirishga esa ruxsat berilmaydi.

Yana bir yangilik, endilikda yuqori ovoz toʻplagan, biroq gʻolib boʻlmagan loyihalarni deputatlar tashabbusi asosida qoʻshimcha ravishda gʻolib deb eʼlon qilish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi. Bunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tegishli okrugdagi gʻolib boʻla olmagani 1 tadan loyihani qoʻshimcha ravishda gʻolib deb eʼlon qilishi mumkin.

Bu kabi imkoniyatlardan foydalanib, gʻolib boʻlishni maqsad qilganlar koʻp. Ammo jarayon shaffofligi bois, bir gal gʻolib boʻlgan mahalla kelasi safar ham yuqori natijani qayd etishi mumkin. “Tashabbusli budjet” amaliyotida bunday holatlar kuzatilgan. Albatta, kimningdir qayta-qayta gʻolib boʻlishiga eʼtiroz yoʻq, ammo avvalgi mavsumlarda bu baʼzida majburiy ovoz toʻplash, sunʼiy ravishda ovozlarni oshirishga ham olib kelgani sir emas. Bunday holatlarga chek qoʻyish maqsadida qatʼiy mexanizmlar ishga tushirildi.

Shunday talablardan biri “Tashabbusli budjet” doirasida ketma-ket ikki mavsumda gʻolib boʻlgan mahallalar uchun navbatdagi ikki mavsumda loyiha kiritishni cheklash amaliyoti joriy etilishi boʻldi. Shunga koʻra, 2026-yil 1-mavsumda loyiha kiritish imkoniyati cheklanadigan mahallalar roʻyxati shakllantirilib, tegishli platformaga ularning roʻyxati joylashtirildi.

Ammo istisno tarzida joriy mavsumda mahallalari soni 15 va undan kam boʻlgan tuman (shahar)larda yuqoridagi tanaffus berish amaliyoti qoʻllanilmasligi ham eʼlon qilindi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi maʼlumotlariga koʻra, yurtimizning 23 ta tuman (shahar)idagi mavjud mahallalar soni 15 va undan kammi tashkil etadi va ularga loyihada ishtirok etish boʻyicha tanaffus qoʻllanilmadi. Qolaversa, mazkur mahallalarda loyihalarni sheriklik asosida ilgari surish imkoniyati mavjud.

Bu ham loyihaaning joriy yubiley mavsumida kiritilgan oʻzgarishlardan yana biri boʻlib, “Tashabbusli budjet” imkoniyatlarini cheklash emas, balki yanada koʻproq loyihalarni moliyalashtirish orqali mamlakatimiz rivoji, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan umummilliy harakat ekanining yaqqol isbotidir.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



.yuz.uz

TARAQQIYOT VA KELAJAK SARI QADAM

Germaniya bilan aloqalar ana shu maqsadga qaratilgan



Sherzod NE'MATOV,
Qarshi davlat texnika universiteti
rektori

Xususan, 2024-yil sentyabrda Ostona da bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo — Germaniya" sammitida Prezidentimiz uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish, Germaniyaning yetakchi kompaniyalari bilan investitsiyaviy va texnologik sheriklik, "yashil" energetika, iqlim o'zgarishlariga birgalikda javob qaytarish hamda transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Germaniya bilan hamkorlik ko'lami tobora kengaymoqda. O'zbekiston bilan terrorizm va ekstremizm, kibernetika, kibernetika kurash, yoshlarning radikalashuvining oldini olish bo'yicha birgalikdagi ishlar davom ettirilmoqda. Yurtimizda dual ta'limni joriy etishda Germaniya tajribasidan keng foydalanilmoqda.

Bugun mamlakatimizda, jumladan, Qashqadaryo viloyatida nemis o'qitish standartlariga asoslangan maktabgacha ta'lim muassasalari va texnikumlar faoliyatini kengaymoqda. Ayniqsa, Germaniyada talab yuqori bo'lgan sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maqsadlar mushtarak

Yaqinda Qashqadaryo viloyati hokimi boshchiligidagi bir guruh mutaxassis Germaniyada xizmat safarida bo'ldi. Uchrashuvlarda bir necha loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish, ish o'rinlari ochish va tartibli migratsiyani yo'lga qo'yishga doir ko'plab masalalar muhokama qilindi. Jumladan, Haydelberg shahri meri Ekkart Vyursner bilan uchrashuvda oliy va kasbiy ta'lim, sog'liqni saqlash, investitsiyalarni jalb etish hamda tartibli migratsiya yo'nalishlarida uzoq muddatli hamda barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari yuzasidan muzokaralar olib borildi.

Uchrashuvlar samimiy va do'stona ruhda o'tdi. Janob Ekkart Vyursner va Mannhaym shahri meri Kristian Shpext Prezidentimiz boshchiligidagi mamlakatimizda ta'lim, sog'liqni saqlash, yoshlarni ko'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarni yuksak baholadi. O'zbekiston va Germaniya hamkorligining istiqbolari haqida iliq fikrlar bildirildi.

Tashrif doirasida Haydelberg shahrida Germaniyaning yetakchi ishbiaron doiralari, savdo-sanoat hamda hunarmandchilik palatalari vakillari ishtirokida Qashqadaryo — Haydelberg iqtisodiy forumi o'tkazildi. Mazkur forum ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, yangi investitsiya loyihalarini hayotga

So'nggi yillarda ta'lim, "yashil" energetika va iqtisodiyotning ko'plab sohalarida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik ko'lami kengaymoqda. Xususan, bu borada Germaniya bilan manfaatli sheriklik tamoyillari yo'lga qo'yildi. Berlin va Ostona da Markaziy Osiyo hamda Germaniya yetakchilari ishtirokida o'tkazilgan xalqaro sammitlarda hamkorlikning istiqboldagi rejalari tuzib olindi, maqsadlar belgilandi.

tatbiq etish va amaliy hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Qashqadaryo — Dyusseldorf iqtisodiyot va hamkorlik forumida ham muhim masalalar kun tartibidan o'rin oldi. Tadbirda Dyusseldorf shahrida faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq o'rta va yirik ishlab chiqarish korxonasi ishtirok etdi. Tomonlar ta'lim, sog'liqni saqlash, tartibli migratsiya va investitsiya yo'nalishlarida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

Mannhaym shahri meri Kristian Shpext va nemis ta'lim muassasalari, tashkilotlar va tadbirkorlar bilan uchrashuvda Germaniya oliy va kasbiy ta'lim muassasalari bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish, dual ta'lim dasturlarini joriy etish, muhandislik va texnika yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mannhaym shahridagi universitetlar va amaliy fanlarga ixtisoslashgan OTMLar tajribasi Qashqadaryo viloyatida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

axborot texnologiyalari mutaxassislari va tibbiyot xodimlariga talab yuqori.

Mamlakat oliy ta'lim sifati va qulay shartlari bilan mashhur. Oliy ta'lim muassasalari asosan uch turga bo'linadi: universitet (ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan), amaliy universitet (sanoat bilan yaqin hamkorlikdagi amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim) va dual ta'lim (o'qish faoliyat bilan birga olib boriladi).

Bugun mamlakatimiz, xususan, viloyatimiz Germaniya bilan ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida hamkorlik qilib kelmoqda. Viloyat hokimi boshchiligidagi xizmat safari ham ana shu hamkorlikning mantiqiy davomidir.

Uchrashuvlarda Germaniyadagi Haydelberg universiteti, Mannhaym texnika universiteti hamda Mannhaym amaliy menajment tadqiqotlari universiteti rahbarlari bilan muloqot o'tkazildi. Tadbirlarda Qarshi davlat texnika universitetining ilmiy va o'quv faoliyati, ilg'or natijalar hamda hamkorlik istiqbollari haqida ma'lumot berildi. Taqdimotlar o'tkazildi.

Muzokaralarda professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik almashinuvi, birgalikda



Muloqotlarda qo'shma korxonalar tashkil etish, sanoat parklari va innovatsion klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish, ishlab chiqarishda raqamlashtirish va avtomatlashtirish tajribasini joriy qilish masalalari ko'rib chiqildi.

Mas'uliyat yuki

Safardan bir olam taassurot, istiqbolli reja va katta mas'uliyat bilan qaytdi. Odamlarning samimiyligi, toza-ozoda shaharlar, temir intizom bizda o'zgacha taassurot qoldirdi. Rejalarga kelsak, hamkorlik yo'lida o'z o'limiz borligi, ayniqsa, kadrlar tayyorlash masalasiga yangicha yondashuv asosida mehnat qilishimiz lozimligini angladik. Bu, o'z navbatida, zimamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Germaniya sanoati va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan. Ushbu davlat yalpi ichki mahsuloti bo'yicha yetakchi o'rinlarda turadi. Asosan, mashinasozlik va sanoat uskunalari, kimyo va farmatsevtika, muhandislik va texnologiya, qayta tiklanuvchi energiya sohalarini rivojlangan. Ishsizlik darajasi nisbatan past. Muhandislar,

ilmiy loyihalar grantida ishtirok etish, ilmiy anjumanlar o'tkazish, qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish kabi ko'plab masalalar muhokama qilindi. Kelishuvlarga erishildi.

Germaniyaning yirik transport-logistika kompaniyalaridan biri — "Pfenning Logistics GmbH" bilan hamkorlik o'rnatildi. Mazkur kompaniya 110 filial, 7000 dan ortiq xodimga ega. Kompaniya tasarrufida 1000 ta yuk avtomobili mavjud bo'lib, u vropa bo'ylab zamonaviy va ishonchli logistika xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Imzolangan bitimga ko'ra, yiliga 300 nafar yuk mashina haydovchisi va 300 nafar avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha malakali mutaxassis Germaniyaga yuboriladi. Bu hamkorlik universitetimizning logistika sohasida mutaxassislar tayyorlash borasidagi faoliyatida yangi sahifa ochadi.

Germaniya Sun'iy intellekt tadqiqot Markazi ilmiy maslahatchisi, professor Volfgang Valzer bilan uchrashuv ham biz uchun manfaatli bo'ldi. Sababi, viloyat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 50 talaba ushbu markazda malaka oshirishi uchun 2 million yevro miqdorida grant ajratiladigan bo'ldi.

Til bilganga ming tanga

Bugun yurtimizda oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga 4 mezon asosida, ya'ni bitiruvchilar bandligi, ilmiy tadqiqotlar uchun tarmoq buyurtmasi va mahsulotlari sotish, ilmiy salohiyati va tan olingan xalqaro jurnallardagi maqolalari hamda jalb qilingan mahalliy va xorijiy grantlarga qarab baho beriladi. Shu nuqtayi nazaridan, talabalar bandligini ta'minlashda germaniyalik ish beruvchilar biz uchun yaxshi imkoniyat.

2025-yil noyabrda Berlinda o'tkazilgan O'zbekiston — Germaniya oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumida universitetimiz va Germaniyadagi "Avestos GmbH" xalqaro kompaniyasi hamda Drezden texnika universiteti

"Avestos GmbH" xalqaro kompaniyasi bilan esa universitetimizda nemis tilini o'qitishni yo'lga qo'yish va talabalarimizni Germaniyada haq to'lanadigan amaliyot dasturiga tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilinmoqda.

o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolangan edi.

Mazkur bitimlarga ko'ra, Drezden texnika universiteti bilan hamkorlikda professor-o'qituvchilar uchun malaka oshirish, stajirovka va tajriba almashinuvi tashkil etish, germaniyalik mutaxassislarni universitetimiz ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlariga jalb etish, birgalikda ERASMUS+ CBHE dasturi doirasida qo'shma loyihalar tayyorlash belgilandi.

"Avestos GmbH" xalqaro kompaniyasi bilan esa universitetimizda nemis tilini o'qitishni yo'lga qo'yish va talabalarimizni Germaniyada haq to'lanadigan amaliyot dasturiga tayyorlash bo'yicha hamkorlik qilinmoqda.

Universitetimiz xalqaro hamkorlik va akademik mobillik yo'nalishida so'nggi yillarda salmoqli natijalarga erishib kelmoqda. Xususan, Erasmus+ ICM KA171 dasturi doirasida 2025-yilda 8 talabamiz xalqaro grantni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Slovakiya milliy stipendiya dasturi doirasida o'tgan yili 4, 2026-yil uchun esa yana 4 nafar talaba grant yutib, xorijda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. 2026-yilda Erasmus+ ICM KA171 loyihasi doirasida qo'shimcha 10 talabamiz nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qishga yuborilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Erasmus+ CBHE yo'nalishidagi HEMUA loyihasi doirasida ham universitetimiz faol ishtirok etib kelmoqda. Ushbu loyiha doirasida biza ajratilgan umumiy mablag' qariyb 40 ming yevroni tashkil etadi. Mazkur grant asosida 2 professor-o'qituvchimiz Italiyaning nufuzli Bolonya universitetida ilmiy va pedagogik tajriba almashib qaytdi.

Talabalar uchun amaliy va mavsumiy bandlik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida "Work and Travel" dasturi doirasida ham tizimli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Bolgariyaga 100 nafar talabamiz hujjat topshirib, hozir viza olish arafasida. Shuningdek, Germaniya yo'nalishi bo'yicha 50 nafar talabamiz uchun hujjatlar rasmiylashtirilgan.

Kadrlar tayyorlash sifati oshirish va xorijiy mehnat bozoriga moslashuvni kuchaytirish maqsadida universitetimizda nemis tilini o'qitish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etildi. Bugun ushbu kurslarda 250 talaba nemis tilini o'rganib, xalqaro ta'lim va mehnat dasturlarida ishtirok etish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqda.

Hamkorlik bizga nima beradi?

Germaniya dual ta'lim bo'yicha katta tajribaga ega. Bugun yurtimizda muhandislik sohasida ushbu ta'lim tizimini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yirik korxonalar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilg'or muhandislik maktablari tashkil etilmoqda. Bu malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari, Yevropadagi nufuzli universitetlar bilan hamkorlik xalqaro grantlar dasturlarida ishtirok etishimizga imkon beradi. Yosh olimlarimizning bilimi va tajribasi oshadi, yangi avlod darsliklari yaratiladi. Ta'lim sifati ortadi.

Xorijda oson ish topishi uchun, avvalo, muhandis talabalarimizga zamonga mos ta'lim berishimiz, shuningdek, asosiy ta'lim yo'nalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishimiz lozim. Universitetimizning 3 ta magistratura mutaxassisligi va 2 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi Germaniyaning ASIIN kompaniyasida xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Bu nima beradi? Ertaga talabada universitet diplom, muhandislikka oid xalqaro sertifikat, til bilish bo'yicha yana bir sertifikat bo'lsa, ishsiz qolmaydi. Nafaqat O'zbekistonda, balki chet elda ham o'ziga munosib, sardoromad ishini oson topa oladi.

Anchadan beri yoshlarni Germaniyada professional faoliyat yuritishga erta va real tarzda qanday tayyorlash mumkinligi masalasi meni qiziqitirib kelmoqda, — dedi germaniyalik mutaxassis Frank Birkemeyer. — Amaliy tajribamdan kelib chiqib ayta olamanki, kasbiy malakadan tashqari, shaxsiy munosabat, mehnat madaniyati, madaniy moslashuv hamda germaniyalik ish beruvchilarning imkoniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazaridan, Qarshi davlat texnika universiteti talabalari uchun tuzilmaviy axborot va yo'naltiruvchi dastur taklif etish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu Germaniyada ishlashni istagan talabalar uchun ixtiyoriy qo'shimcha o'quv dasturi bo'ldi.

Hamkorlik o'zaro hamfikirlik poydevoriga qurilgan bo'lsa, ezigulikka xizmat qiladi. Millatlarni o'zaro yaqinlashtiradi, muammolarga yechim topishga yordam beradi. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi so'zi, yakdill fikri ana shu tamoyilga asoslangan.



EL ROZILIGI YO'LIDAGI ODIMLAR

Tibbiyotni transformatsiya qilish va jahon standartlari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Keyingi yillarda davlat byudjetidan tibbiyot sohasi uchun yo'naltirilayotgan mablag' hajmi 6 barobar oshirilib, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotgani va kadrlar salohiyati oshirilayotgani shundan dalolat beradi. Eng muhimi, bunday o'zgarishlar natijasini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida his etmoqda. Masalan, ilgari faqat poytaxtda ko'rsatilgan 400 dan ziyod yuqori texnologik tibbiy xizmat hozir viloyat va tumanlarning o'zida ham mavjud.

Ilk bor davlat tibbiyot muassasalariga robot texnologiyalari kirib keldi. Sun'iy intellekt asosida bajarilayotgan tekshiruv va muolaja turlari 50 ga yaqinlashdi. Tez tibbiy yordam xizmatida chaqiruvlarni elektron boshqarish tizimi ishga tushirilishi natijasida murojaatchilarning manziliga yetib borish vaqti sezilarli darajada qisqardi.

Bugun yurtimizda bosqichma-bosqich joriy etilayotgan davlat tibbiy sug'urtasi tizimi minglab insonlarga umid, ishonch va xotirjamlik bag'ishlamogda. Joriy yil oxirigacha mamlakatimizning barcha hududida bu tizim yo'lga qo'yiladi. Natijada aholining hamma qatlami kafolatlangan tibbiy yordam bilan to'liq qamrab olinadi.

Onalar va bolalar o'limi keskin kamaygani ham tibbiyotdagi transformatsiya jarayoni samarasidir. Onalik va bolalikka ko'rsatilayotgan xizmat sifati oshirish, xalqaro standartlarga javob beradigan tizim yaratilishi bunda bosh omil.

Shuningdek, DMED yagona elektron axborot tizimi yo'lga qo'yilib, bu platformaga 36 milliondan ziyod fuqaroning tibbiy ma'lumotlari kiritildi. Sog'liqni saqlash vazirligida Raqamli sog'liqni saqlash markazi tashkil etildi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining xalqaro tajribaga asoslangan yangi modelini joriy etishga kirishildi. Hozir 15 hududda



boshlangan tajriba-sinov loyihasi asosida bajarilayotgan ishlar ayni shu maqsadlar ro'yobiga xizmat qilmoqda. Kelgusi yildan bu tajriba Samarqand viloyatining barcha tumani va shaharlarida amaliyotga tatbiq etiladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida bu euzu ishlar yangicha mazmun va ko'lamda davom ettirilishi ko'zda tutilgan. Marralar yuqori olindi. Yillar kesimida samaradorlik ko'rsatkichlari belgilandi.



O'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, yurak-qon tomir kasalliklaridan erta o'limni 27 foizgacha, saraton kasalligidan erta o'limni 5,2 foizgacha kamaytirish vazifalari shular jumlasidan. Qandli diabetga chalinganlarning davolanishga qamrovini to'liq ta'minlash, nafas yo'llari kasalligidan erta o'limni 1,5 foizdan oshirmaslik, sil kasalligi bilan kasallanish darajasining 33 foizdan yuqori bo'lmasligiga erishish vazifalari ko'zda tutiladi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarning davomi sifatida endi oilaviy shifokorlar va aholi orasida tuzilgan bitim qamrovi 90 foizga yetkaziladi. Xalqaro hamjamiyatda qabul qilingan bu masala "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga yangi yo'nalish bo'lib kirdi.



Bitimga ko'ra, aholiga sog'lom turmush tarziga rioya etish, tibbiy savodxonligini oshirish, shifokor ko'rsatmalariga amal qilish, profilaktika va skrinink ko'riklaridan belgilangan muddatlarda o'tish talablari qo'yiladi.

Oilaviy shifokorga esa aholini belgilangan tartibda qabul qilish va maslahat (yoki yo'llanma) berish, tibbiy xizmatlarni o'z vaqtida, sifatli hamda to'liq hajmda ko'rsatish, dori vositalarini to'g'ri tayinlash, kasalliklarni erta aniqlash, sog'lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish kabi majburiyatlar yuklatiladi. Bu, albatta, aholining tibbiy xizmatga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Tibbiyot xodimlari maoshining oshirilishi esa aholi salomatligi va profilaktikasi masalasida shifokor mas'uliyatini oshiradi.

Umuman, strategiyada belgilanayotgan har bir yo'nalish, xususan, daun sindromi bilan tug'ilishni keskin kamaytirish, xavfli o'sma majburiyatlar yuklatiladi. Bu, albatta, aholining tibbiy xizmatga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Tibbiyot xodimlari maoshining oshirilishi esa aholi salomatligi va profilaktikasi masalasida shifokor mas'uliyatini oshiradi.

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





OLAMNI MUKAMMAL KO'RMOQ ISTAGI

G'azal Sharq she'riyatining ko'p qirrali janri bo'lib, she'riyat mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodida yetakchi o'rin egallagan. Shoir dunyoqarashi va shaxsiy intilishlarini aynan shu janrda nihoyatda to'liq ifoda etgan. O'rta asr she'riyatining bir turi sifatida g'azalning o'ziga xosligi shundaki, ushbu qadimiy janrning g'oyaviy mohiyati, badiiy xususiyatlari va ramziyligini anglash uchun muayyan o'qish va tushunish madaniyati talab etiladi.

Avvalo, g'azalning yuksak ma'naviy maqsadga qaratilganini ta'kidlash lozim. Bu yerda lirik qahramon mukammal hayotni izlash, oliy ilohiy manba bilan birlashish, ruhiy uyg'unlikni topishga intiladi. G'azalda tinimsiz tilga olinadigan muhabbat hayotning o'zini, olamni, Allohni, odamlarni, barcha tirik mavjudotni qabul qilishni anglatadigan nihoyatda chuqur va keng tuyg'u'dir.

Pil o'lsa sening xasming, desangki zarar topmay, Bir pashshag'a olamda yetkurma

Ruhiy kamolot yo'li nihoyatda mashaqqatlidir. U muhabbat va go'zallik ideallariga yuksak darajada xizmat qilish, chin hayotiy donishmandlik, cheksiz sabr-toqat va kamtarlikni talab etadi. Shu bois, qahramonni ko'pincha g'amgin va qayg'u holatida ko'ramiz — kundalik hayotda yuksak ilohiy amrlar va ma'naviy ideal-larga ergashish insonga oson kechmaydi. Qahramon o'zining mukammal emasligini, kuchi cheklanganini og'riq bilan anglaydi,

Bunday "yomon xabardan shodlik topish"ni insonning boshiga tushgan sinovlar bejiz emasligini anglagani bilan izohlash mumkin. Baxtsizliklar mashaqqat va ixlos evaziga yuborilgan bo'lsa-da, ularni boshdan kechirish zarur. Ularning og'irligi va go'yoki nohaqligiga qaramay, baxtsizliklar har bir inson taqdirida oliy qudratning qo'li borligini tasdiqlaydi.

Lirik qahramonning parini diniy-estetik va hissiy idrokda nozik tarzda uyg'unlashtirishi, ba'zan unga real ayollik sifatlarini berishi g'azal janrining o'ziga xos va jozibador jihatlaridan biri, uning nafisligi, badiiy o'yini, jilvalari, o'ziga xos "chegarada yurishi"dir.

Men kimu no'shi labingdin istamak quti hayot, Aylasa g'amzang sinoni qatl

Dayrdagi keksa (chol) obrazi ham alohida diqqatni, tushunishni talab etadi. Dayr — soqiy, may quyuvchi, ya'ni dono qariya qahramonga may tutadigan maxsus maskan.



ammo muvaffaqiyatsizliklar, baxtsizliklar va ojizliklarga qaramay, doimo haqiqat sari yo'l izlaydi.

Ey Navoiy, sarvu guldin kechki, qaddu yuzidin

Bor emish yuz yilchilig' yo'l sarv ila gul orasi.

Haqiqat sari eltadigan yo'lda lirik qahramonga ikki muhim timsol hamrohlik qiladi. Bular ilohiy go'zal pari va dayrda yashovchi bir qariya (u — soqiy, may quyuvchi hamdir).

G'azallarni oddiy ishqiy she'rilar, pari obrazini esa bosh qahramon oshiq bo'lgan go'zal qiz yoki ayolning shartli ifodasi sifatida qabul qilish soddalik bo'lar edi.

Ey visol ahli, siz izzat saririkim, menga —

Hajr ko'yi iltari o'llida

G'azalda pari go'zallik, xoziba va mukammallikning hissiy idrokda shartli-ramziy ifodasidir. Uning ayol qiyofasida gavdalanishi inson uchun haddan tashqari buyuk va idrok etib bo'lmias ilohiy mohiyatning o'ziga xos timsoli. Shu sababli bu obraz nihoyatda yuksak: pari qahramonni o'ziga tortadi, mafun etadi, biroq erishib bo'lmias holda qoladi, faqat ba'zan unga marhamat ko'rsatadi.

Ko'ngul sensiz topar g'am shodlig'din, G'aming yetgach, vale aylar ani shod.

Boshlanishi 1-betda

Alisher Navoiy nazarida tarbiya — inson hayotidagi eng muhim jarayon. Shoir bolalikda berilgan tarbiya insonning fe'l-atvori, dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rnini butun umr davomida belgilab berishini chuqur anglagan. Shu sababli tarbiyani kechiktirib bo'lmaydigan va beparvolikka yo'l qo'yilmaydigan mas'uliyatli vazifa deb biladi. Allomaning fikricha, inson tug'ilib yoxshi yoki yomon bo'lib qolmaydi, balki uni shakllantiradigan asosiy omil muhit va tarbiyadir. Agar bola mehr, o'dob va halollik muhitida ulg'aysa, kelajakda jamiyatga foydali inson bo'lib yetishadi. Aksincha, befarqlik va qo'pol munosabat hukmron bo'lgan muhit farzandning dunyoqarashini izardan chiqaradi.

Shuningdek, hazrat tarbiyani inson taqdirini belgilovchi asosiy mezon sifatida talqin qiladi. Uning qarashlarida tarbiya shunchaki shaxsiy masala doirasidan chiqib, ijtimoiy mas'uliyat darajasiga ko'tariladi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida bunday yozadi: "Agar tarbiya bo'lmasa, tabiatdagi yaxshi xislat ham so'nadi". Bu fikr insondagi ijobiy imkoniyatlar faqat to'g'ri tarbiya orqaligina yuzaga chiqishini anglatadi. Navoiy fikricha, agar tarbiya kechiktirilsa yoki e'tiborsiz qoldirilsa, jamiyatda axloqiy inqiroz yuzaga kelishi muqarrar.

Buyuk adib ota-onani farzandning nafaqat moddiy ta'minotchisi, balki uning axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi shaxs sifatida ko'radi. Shoirning mashhur hikmatlaridan birida "Farzand ko'rganini qilar, eshitganini emas" degan fikr ilgari suriladi. Mazkur qarash bugungi pedagogik psixologiyada ilgari surilayotgan "ibrat orqali tarbiyalash" modeliga to'liq mos keladi. Zotan, Navoiy ota-onaning shaxsiy xulqi farzand tarbiyasida hal qiluvchi



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefon: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-246. 30829 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 21:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

“

Buyuk adib ota-onani farzandning nafaqat moddiy ta'minotchisi, balki uning axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi shaxs sifatida ko'radi. Shoirning mashhur hikmatlaridan birida "Farzand ko'rganini qilar, eshitganini emas" degan fikr ilgari suriladi. Mazkur qarash bugungi pedagogik psixologiyada ilgari surilayotgan "ibrat orqali tarbiyalash" modeliga to'liq mos keladi.

“

Shoir inson xulqini tarbiyaning o'zagi va poydevori deb biladi. Uning nazdida go'zal xulq — insonning eng oliy ziynati. "Mahbub ul-qulub" asarida bu haqda: "Yaxshi xulq — inson ziynati, yomon xulq — balo", deya ta'kidlanadi. Navoiy kibr, manmanlik va nodonlikni jamiyatni ichidan yemiruvchi illat sifatida qattiq qoralaydi.

ahamiyatga ega ekanini salkam olti asr oldin ta'kidlagan edi.

Ulug' mutafakkir ota-onani o'z xulqi, so'zi va muomalasiga mas'ul bo'lishga chaqiradi hamda bolaga pand-nasihat qilishdan avval o'zimiz tarbiyali bo'lishimiz lozimligini eslatadi. Ota-onaning halolligi farzandning vijdoni, ota-onaning sabri esa farzandning matonati bo'lib shakllanadi.

Hazrat Navoiy ilmni insonni yuksakka ko'taruvchi eng buyuk kuch deb bilgan bo'lsa-da, uni o'dob-axloqdan ayro holda aslo tasavvur qila olmagan. "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Ilm birla bo'lmasa adab, ul ilm jaholatdin yomon" degan purma'no satrlari mutafakkirning bu boradagi qarashlarini yaqqol ifodalaydi. Navoiyning uqtirishicha, tarbiyasiz olingan bilim jamiyatga foyda keltirish o'rni xavf tug'dirishi mumkin. Shu bois, yosh avlodga nafaqat ziyo tarqatish, balki ma'naviy jihatdan butun va yetuk inson etib voyaga yetkazish g'oyat muhim.

Shoir inson xulqini tarbiyaning o'zagi va poydevori deb biladi. Uning nazdida go'zal xulq — insonning eng oliy ziynati. "Mahbub ul-qulub" asarida bu haqda: "Yaxshi xulq — inson ziynati, yomon xulq — balo", deya ta'kidlanadi. Navoiy kibr, manmanlik va nodonlikni jamiyatni ichidan yemiruvchi illat sifatida qattiq qoralaydi. Uning e'tiroficha, bolalikdan kamtarlik va go'zal o'dob ruhida tarbiya topgan farzand kelajakda jamiyat

muvozanatini saqlovchi katta kuchga aylanadi.

Alloma asarlarida halol mehnat tarbiyaning eng mustahkam ustuni sifatida ulug'lanadi. Mehnat inson qadrini oshiradi va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi. Shoirning "Halol mehnat bila topilgan luqma jonni pok etur" degan hikmati fikrimizning yorqin isbotidir. Navoiy mashaqqatsiz va mehnatsiz boylik orttirishni ma'naviy tubanlik deb baholaydi. Shu sababli farzandni yoshligidanoq mehnatsevarlik, mas'-uliyat va sabr-toqat ruhida chiniqtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Tarbiyada mehr-muhabbatning o'rni beqiyos ekanini Navoiy bot-bot uqtiradi. Inson qalbini jazo yoki zo'ravonlik bilan emas, faqat samimiy muhabbat bilan zabt etish va tarbiyalash mumkin. Uning "Ko'ngulni sindurma, ko'ngul Xudo uyidir" degan so'zlari tarbiyada insonparvarlik va ruhiy nazokat birlamchi bo'lishi kerakligini anglatadi. Mutafakkir qo'pol munosabat bolaning ma'naviy dunyosini jarohatlashini chuqur his etgan.

Bugungi globallashuv va shiddatli axborot asrida farzand tarbiyasi har qachongidan ham murakkab jarayonga aylandi. Ayni shu pallada Alisher Navoiy o'g'dlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan mayoq sifatida bizga yo'l ko'rsatadi. Uning g'oyalari zamonaviy pedagogika va ma'naviy qarashlar bilan hamohang. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining markazida inson qadri va kamoloti turgan bir paytda Navoiyning tarbiya xususidagi o'lmas g'oyalari bugungi ma'naviy hayotimiz uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Nodir G'AFFOROV,
filologiya fanlari doktori,
professor